“O‘zkimyosanoat” AJ ishchi guruhi “Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida doimiy uchrashuvlar o‘tkazib bormoqda

// 18 November 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-ishchi-guruhi-aholi-va-qishloq-xo-jaligini



Prezidentimizning 2025-yil 19-sentabrdagi “Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zkimyosanoat” AJ ishchi guruhi Farg‘ona viloyati Yozyovon tumaniga biriktirilgan bo‘lib, shtab mas’ullari hamda “Mahalla yettiligi” tizimi xodimlari bilan doimiy uchrashuvlar o‘tkazib bormoqda.

Tuman hokimligida tuzilgan aholini ro‘yxatga olish shtabi hamda “Qorasoqol“ hamda “Yuqori“ MFYlarda o‘tkazilgan uchrashuvlarda muhim tadbirga tayyorgarlik jarayonlari va uni samarali tashkil etish masalalari e’tibor markazida bo‘ldi.



Xususan, ishchi guruh tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar holati tahlil qilinib, jarayonni sifatli tashkil etish, xodimlarning mas’uliyatini oshirish hamda aholini xabardor qilish yuzasidan fikr almashildi.

Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirlarini to‘g‘ri va aniq olib borish uchun MFY yettiligi a’zolari o‘qitilganliklari bunda tuman MFYlarining ko‘rsatkichlari viloyatda yuqori o‘rinlarda ekanligi e’tirof etildi.



Jarayonlarda barcha faol bo‘lishga chaqirilib, ishlarni to‘g‘ri tashkil etishga kelishib olindi.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati